



PARTICIPATION OF PROSECUTOR'S OFFICES IN THE FORMATION OF LEGAL KNOWLEDGE AND CULTURE IN SOCIETY

Khushbokova N.G.

Student

Termiz State University

Termiz, Uzbekistan

E-mail: Nigora.0303@icloud.com

ABOUT ARTICLE

Key words: legal consciousness, prosecutor's office, legal culture, society, democratic state, regulations, administration, etc.

Received: 28. 06. 24

Accepted: 30. 06. 24

Published: 02. 07. 24

Abstract: The formation of legal knowledge and culture in the society is a program for the democratic development of the country in the future. Projects and research in this direction are commendable. This article describes in detail the importance of prosecutor's offices in the formation of legal knowledge of society representatives.

JAMIYATDA HUQUQIY BILIM VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PROKURATURA ORGANLARINING ISHTIROKI

Xushboqova N.G'

Talaba

Termiz Davlat universiteti

Termiz, O'zbekiston

E-mail: Nigora.0303@icloud.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy ong, prokuratura, huquqiy madaniyat, jamiyat, demokratik davlat, nizom, mamuriyat va h. k.

Annotatsiya: Jamiyatda huquqiy bilim va madaniyatni shakllanishi kelgisidagi mamlakatning demokratik rivojlanishi uchun dasturilamal hisoblanadi. Bu yo'nalishda esa qilinayotgan loyihalar va izlanishlar tahsinga sazovor. Ushbu maqolada jamiyat vakillarining huquqiy bilimlarini shakllantirishda prokuratura organlarining ahamiyati haqida atroflicha bayon qilinadi.

УЧАСТИЕ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВЫХ ЗНАНИЙ И КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ

Хушбокова Н.Г.

Студент

Терmezский государственный университет

Термез, Узбекистан

E-mail: Nigora.0303@icloud.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правосознание, прокуратура, правовая культура, общество, демократическое государство, нормативные акты, управление и др.

Аннотация: Формирование правовых знаний и культуры в обществе является программой демократического развития страны в будущем. Проекты и исследования в этом направлении заслуживают похвалы. В данной статье подробно описывается значение органов прокуратуры в формировании правовых знаний представителей общества.

KIRISH

Fuqarolarning huquqiy bilimlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak darajada bo‘lsagina, ular ijtimoiy hayotda bo‘layotgan o‘zgarishlarga faol munosabatda bo‘lishadi, shaxsiy fikrlarini bildirgan holda, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘sishi mumkin bo‘ladi. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish, o‘z navbatida, davlat va jamiyat hayotini isloh qilish, amaldagi qonun hujjatlarini tanqidiy tahlildan o‘tkazish, davr talablaridan kelib chiqib, ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, eskirgan va taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan me’yorlarni bekor qilish bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sod Farmoniga muvofiq, “jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” tamoyili bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi”. 2019-yil 13-dekabrdagi “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minalash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4551-sod qarori huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi dolzarb vazifalarni belgilab berdi. Jamiyatda aholi huquqiy ongi va madaniyati darajasining yuksakligi – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillardan ushbu masalaga alohida e’tibor qaratildi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Huquqiy ong sub’yektiv ongning shakllaridan biri bo‘lib, u insonlarda huquq talablari yuzasidan ijobiy yoki salbiy munosabatni ishlab chiqishiga ta’sir etadi. Huquqiy ong tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

huquqiy ong bu jamiyatning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadigan ijtimoiy ongning muhim bir tarkibiy qismi bo‘lgan, insonlarning huquq, siyosiy-huquqiy hodisalar, yuridik amaliyat, huquqiy tizim va istalayotgan, kutilayotgan huquq haqidagi fikrlari, o‘ylari, his-tuyg‘ulari, qarashlari, ixtirob-kechinmalari hamda baholari va tasavvurlari majmuasidir.

“Har qanday jamiyat, davlat ma’lum adolatni himoya etuvchi, huquqiy qonunlar asosida idora etiladigan,adolatsizlikka yo‘l qo‘yilmaydigan, qonun ustuvor bo‘lgan adolatli jamiyat ta’limotini yaratishga, uni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi”-degan buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonning shiddat bilan o‘sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy- siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo‘lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta’minlab bergen ko‘plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirish mumkin. O‘zbekistonning mustaqil rivojlanish davrida nafaqat umume’tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarining butun kompleksini qonuniy mustahkmlagan barqaror huquqiy baza tashkil etildi, balki inson huquqlari sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o‘rnatuvchi tartib va mexanizmlar ham yaratildi.

ASOSIY QISM

Mashhur fransuz huquqshunosi Rene David prokuratura roman-german huquq tizimida paydo bo‘lganligiga urg‘u bergen. Shuning uchun ham milliy prokuratura Yevropada birinchi bo‘lib Fransiyada vujudga kelgan. Fransiyadagi prokuratura tizimidan dunyodagi aksariyat davlatlar andoza olishgan. Shu tariqa boshqa davlatlarda prokuratura asta-sekin shakllandi. Professor B. X. Po‘latovning ta’kidlashicha, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshira turib, respublikadagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatlarga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarning ro‘yxatga olinishi, qonunda belgilangan dastlabki tekshirish muddatlari va tartib qoidalariga rioya qilinishi, jinoyatlarga oid ma’lumotlarni ko‘rib chiqish natijasida qabul qilingan qarolarning qonuniyligi ustidan nazorat qiladi.

Prokuratura organlari, shu jumladan iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to‘liq bajarilishini ta’minalash uchun, avvalo, kadrlarni to‘g‘ri tanlash, tayinlash, tarbiyalash, ularning kasb mahorati va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy e’tibor xodimlarning o‘z ishiga bo‘lgan mas’uliyatini tubdan o‘zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish, o‘z ishining ustasi bo‘lib shakllanishiga erishishga qaratilmog‘i lozim. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o‘rnbosariga, o‘rnbosarlariga ega bo‘ladi.

Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-yanvar PF-5618- sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonni qabul qilish zarurati:

- Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti;

- Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minalashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

- Aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

“Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida» gi farmoniga muvofiq “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi” ishlab chiqildi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, o‘z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo‘ladigan fuqarolarni tarbiyalashdan iborat.

Prokuratura - bu davlat tomononidan o‘rnatilgan konstitutsiyaviy qonunlarga riosa qilinishi ustidan narozat qiluvchi organ xisoblanadi. Jinoiy ishlarni qo‘zg‘atish, ayblovni yoqlash, sud protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan maxsus davlat organi xam xisoblanadi. «Qonun qabul qilish — bu ishning yarmi, xolos. Ularning hayotga to‘la tatbiq qilinishiga erishish darkor. Buning uchun qabul qilingan qonunlarning kundalik turmushimizda amalga oshishini ta’milovchi ta’sirchan mexanizm yaratish lozim». Bu fikrlari bilan muhtaram birinchi prezidentimiz prokuratura organlarining, jamiyatdagি roli haqida tushuntirib o‘tganlar. Prokuratura xodimlari ishlab chiqilgan qonunlarning amalga tadbiq etilishida roli kata desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Demak prokuratura organlari mamlakatda qonunlarning amal qilishi ustidan nazorat olib boradigan organ hisoblanadi. Shu o‘rinda alohida takidlab o‘tish joizki, prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi; Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokururasi; viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari; tuman va shahar

prokuraturalari; viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi; O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturalariga bo‘linadi. Qonunchilikka ko‘ra mamlakatimizda Bosh prokuror va uning birinchi o‘rinbosarini respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etadi. Bosh qomusumizning 145-moddasida O‘zbekiston Respublikasining prokuratura organlari o‘z vakolatlarini boshqa davlat organlaridan, o‘zga tashkilotlardan, mansabdar shaxslardan mustaqil ravishda, faqat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga bo‘ysungan holda amalga oshiradi degan qoida mustahkamlanganligi so‘zimizning isbotidir.

Shu o‘rinda takidlash lozimki, prokuratura organlarining vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a’zolikni to‘xtatib turadilar xamda mazkur organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil etish jarayonida quyidagi xolatlarni takidlab o‘tish maqsadga muvofiq. Xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari prokururasining faoliyat strukturasini xaqida professor Anjela. J. Devies quyidagilarni takidlaydiki. Prokurorlar Amerika jinoiy adliya tizimidagi eng kuchli amaldorlardir. Ular qabul qiladigan qarorlar, ayblov va sud qarorlari tizimning ishlashini nazorat qiladi va ko‘pincha jinoiy ishlarning natijalarini oldindan belgilab beradi.

XULOSA

Yangi O‘zbekiston konstitutsiyasida prokuratura organi xodimlarining vazifalari, xizmat jarayoni va javobgarlik masalalari aniq qilib belgilab berilganligi xaqida alohida takidlash o‘rinlidir. Yana bir muhum masala Konstitutsiyamizning 146-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanishi davlat tomonidan nazoratga olingan. Yangi, tergov va surishtiruv, tezkor-qidiruv organlarinin, xususiy lashtirilishiga ruxsat etilmaydi. Biroq AQSH davlatida xususiy tergov firmalari tashkil etish uchun ruxsat etiladi. Shuningdek xususiy tergovchi - bu jismoniy shaxs, agentlik yoki korporatsiya tomonidan boshqa shaxs, tadbirkorlik sub'ekti, odamlar guruhi yoki hatto joylashgan joy haqida ma'lumot to‘plash uchun yollangan shaxs xisoblanadi. Tergovchining faoliyati mahalliy qonunchilik va shtat qonunlariga zid bo‘lishi mumkin bo‘lgan tergov sub'ektlariga asossiz ta’sir ko‘rsatmasligini ta’minlash uchun tergov mutaxassislari tomonidan ma'lum qoidalalar va qoidalarga rioya qilish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki prokuratura organlari mamlakatimizda qonunlarning ijro etilishi va ularga qat’iy amal qilishi ustidan nazorat olib boriladi. Bu haqida Bosh qomusimizda batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari «Prokuratura to‘g‘risidagi qonun»da ham prokuratura

xodimlarining xizmat vazifalari, majburiyatlari sifatida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat, ekanligi belgilangan.

Jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash hamda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonunlarning so'zsiz ijro etilishi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish orqah xalq manfaatlariga xizmat qiiish prokuratura organlarining ustuvor vazifasi etib belgilandi. Birinchidan, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini so'zsiz bajarishni, amalga oshirilayotgan islohotlarga to'siq bo'luvchi omillar va tizimli kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etishni; tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llabquvvatlash hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni; aholi bilan to'g'ridan to'g'ri ochiq muloqot o'rnatishni, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida hal qilishni, aholining huquqiy madaniyatini oshirishni, jamiyatda qonun buzilishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishni; profilaktika tadbirlarining, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi tadbirlarning ta'sirchanligini, huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etishni; kam ta'minlangan oilalarni manzilli ijtimoiy himoya qilishni, yangi ish o'rnlari yaratish dasturlarini amalga oshirishni, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni o'z vaqtida to'lashni; malakali tibbiy yordam ko'rsatishni, aholiga arzon dori vositalari yetkazishni, ta'lim jarayonining siati va ta'lim muassasalarida o'quvchilar davomatini hamda ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishni; fuqarolarga arzon uy-joy ajratishni, uy-joy sotib olish uchun birinchi navbatda yosh oilalar, yetim bolalarga kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratishni, sifatli kommunal xizmat ko'rsatish va hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishni; tabiiy resurslar, yer maydonlaridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilishi lozimligi mustahkamlab qo'yildi.

Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi. Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin, biron-bir ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shu prinsiplarga amal qiiish prokuratura organlariga o‘zining vazifasini aniq bajarishga imkon beradi. Prinsiplarni prokurorlik funksiyalari va yo‘nalishlarini amalga oshirishning tartibi va holati bilan almashtirmaslik kerak, chunki tamoyillar o‘zaro bog‘liq va ajralmas hisoblanadi. Bundan tashqari, prokuror muayyan huquq sohasida nazoratni amalga oshirar ekan, shu sohadagi prinsiplarga amal qilishi lozim. Bunga misol: sudlarda davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlaganda adolatlilik, sudyalarning mustaqilligi, tenglik, sudlanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, oshkoraliq, erkin fikr, protsessning bevositaligi kabi prinsiplarga amal qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M. M. Inagamova. M. E. Fahriddinov. Konstitutsiya – inson qadri va adolat ustuni / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiysi - inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1 <https://tstu.uz/>. Tashkent State Transport University The Constitution of the Republic of Uzbekistan is the Glorification of Human Dignity, the Guarantee of Our Free and Prosperous Life. Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022. 324-329-b.
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01. 05. 2023-y. , 03/23/837/0241-sон
3. Anjela, J. Davis, “Amerika prokurorining vakolati va ixtiyor” <https://journals.openedition.org/droitcultures/1580?lang=en>
4. Xususiy tergov xizmatidan foydalanish. Regina Strait tomonidan tahrirlangan, Esq. <https://www.peoples-law.org/using-private-investigation-service>
5. Xususiy tergovchi qila oladigan va qila olmaydigan narsalar. <https://privin.net/what-can-a-private-investigator-do-and-not-do/>